

# **OILA VA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINING O'ZARO HAMKORLIGI SHAKLLARI**

**ФОРМЫ СОТРУДНИЧЕСТВА СЕМЬИ И ДОШКОЛЬНЫХ  
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ**

**FORMS OF COOPERATION BETWEEN FAMILY AND PRESCHOOL  
EDUCATIONAL ORGANIZATIONS**

**M.Usmanova, JDPI katta o'qituvchi  
Z.Qurbonbekova, Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi**

**Annototsiya:** Ushbu maqolada oila jamiyatning asosiy bo'g'ini, u davlatlar ichida kichik bir davlat yekanligi, jamiyatning rivojlanishi ham aynan mana shu kichik bo'g'indan boshlanishi, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini ota-onalar bilan jamoa tarzida va yakkama-yakka holda ishlash shakllarini mohirlik bilan qo'shib olib borish, keng aholi orasida pedagogik tashviqot ishlarini tashkil etish tufayli bolalarni tarbiyalashda ijobiy natijalarga erishish ochib berilgan.

**Аннотация :** в данной статье семья - это главное звено в обществе, это маленькое государство внутри государств, с этого маленького звена начинается развитие общества, дошкольные образовательные организации работают с родителями как в команде и индивидуально. Положительные результаты в воспитании детей обусловлены умелым сочетанием форм, организацией педагогической пропагандической работы среди широких слоев населения.

**Annotation:** In this article, the family is the main link in society, it is a small state within the states, the development of society begins from this small link, preschool education organizations with parents as a team and individually It is revealed that the achievement of positive results in the upbringing of children through the

skillful combination of forms of work, the organization of pedagogical propaganda work among the general population.

Kalit so'zlar: oila, jamiyat, hamkorlik, tashviqot, ijodkorlik, jamoa, individual, natija.

Ключевые слова: семья, сообщество, сотрудничество, защита интересов, творчество, сообщество, личность, результат

Keywords: family, community, collaboration, advocacy, creativity, community, individual, outcome

**Kirish.** Bizga ma'lumki, oila jamiyatning asosiy bo'g'ini, u davlatlar ichida kichik bir davlat. Jamiyatning rivojlanishi ham aynan mana shu kichik bo'g'indan boshlanadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Zero farovon, mustahkam oilalar jamlanmasidan tashkil topgan jamiyat ham navqiron bo'ladi. Mana shunday oilada shakllangan, yurt kelajagi deya e'tirof etiladigan farzandlarning g'oyalari yuksak, fikrlari qat'iy, qadamlari esa shaxdam bo'ladi. Oilada farzand tarbiyasi, uni kamolga yetkazish, kasb-hunarga yo'naltirish barcha zamonlarda ham ota-onaga katta ma'suliyat yuklagan. Ko'hna tarixga nazar tashlasak, muqaddas kitobimiz "Avesto"da ham ota-onalik ma'suliyati haqida fikrlar bildirilgan.[2]

**Asosiy qism.** Bugun zamonamiz rivojlangani sayin "ota-onalik ma'suliyati" tushunchasi ham keng qamrovli tushunchaga aylanib bormoqda. Ota-ona farzandini moddiy jihatdan ta'minlaydi, tarbiyalaydi hamda ta'lim olishini tashkil etadi. Oilada tarbiya uzoq muddatli, uzluksiz, ko'p qirrali jarayondir. Ta'limchi?, nazarimizda ta'lim ham tarbiya singari oiladan boshlanib aynan shu dargohda mustahkamlanadigan jarayon. Ayniqsa maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ta'limida maktabgacha ta'lim tashkilotlari va ota-onalar hamkorligining o'rni beqiyosdir[1]. Qachonki oila va maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamkorlikda faoliyat olib borar ekan shundagina ko'zlangan maqsadga erishiladi.

**Natija va mulohazalar.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini ota-onalar bilan jamoa tarzida va yakkama-yakka holda ishlash shakllarini mohirlik bilan qo'shib olib borish, keng aholi orasida pedagogik tashviqot ishlarini tashkil etish tufayli bolalarni tarbiyalashda ijobiy natijalarga erishish mumkin. MTTi xodimlarini ota-onalar va oila bilan hamkorlikdagi ishlarining eng keng tarqalgan shakllarini quyida keltiramiz:

- *ota-onalar bilan yakkama-yakka ishlash.* Ilg'or pedagogik tajribalarni ko'rsatishicha, ishning bu turi katta ahamiyatga ega. Bunda tarbiyachi oila va bolaning shaxsiy xususiyatlarini o'rganib ularni o'zining tarbiyaviy ishida hisobga oladi. MTTlarimiz tajribasida ota-onalar bilan yakkama-yakka olib boriladigan ishlarining turli xil shakllari aniqlangan; oilaga tarbiyachining borishi, ota-onalar uchun suhbat o'tkazish, ularga maslahatlar berish, ota-onalarning muassasa hayoti bilan tanishishlari.

- *ota-onalar bilan jamoa tarzida tashkil qilinadigan ishlar.* Bular ota-onalarning guruhiy va umumiy majlisi, ota-onalar maktabi, anjumanlar, shanbaliklar, savol-javob kechalari.

- *ko'rsatmali ishlar.* Ishning bu turi ko'rgazmali, bolalarni ishlarini namoyish qilish, ochiq eshiklar kuni, pedagogik axborot stendlari, ota-onalar uchun kutubxona oilaviy tarbiyaning barcha masalari bo'yicha materiallar solingan papka.

- ota-onaga pedagogik ta'lim berish va boshqalarni ko'rsatish mumkin[3].

**Xulosa.** Shunday qilib, maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligini yanada oshirish; ota-onalar o'rtasida psixologik va pedagogik fanlarning eng so'nggi yutuqlarini keng targ'ib etish, ota-onalar va muassasa tarbiyachilari bilan turli mavzularda katta-kichik noan'anaviy yig'ilishlar, tadbirlar mashhur har sohaning vakillari bilan uchrashuvlar tashkil etish, badiiy kechalar o'tkazib turish, bolalar ko'z o'ngida ma'naviy boy shaxslarni gavdalantirish, avlodlardan faxrlanish va ularga mos farzandlar bo'lish hissini uyg'otishishubhasiz. Ammo ushbu tashkil etilgan tadbir va uchrashuvlarning muvaffaqiyati tarbiyalanuvchilarning ota-onalari munosabati bilan ham chambarchas bog'liq.

Shunday ekan ota-onalarimizda mas'uliyat hissini oshirishimiz asosiy vazifamiz bo'lib qolmoqda.

Bugungi kun zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisiga tavsiyalar:

-rivojlangan zamonamizda axborot-texnologiyalari shitob bilan rivojlanmoqda, ijtimoiy tarmoqlardan atrofimizdagi barcha keng foydalanmoqda zamonaviy tarbiyachi bundan oqilona foydalanishi lozim.

-Umumiy va navbatdan tashqari yig'ilishlarga ota-onalarni taklif etishda "Onalar yig'ilishi", yoki "Otalar yig'ilishi" kabi maxsus maxsus nomlar qo'yish. Bu ta'lim jarayoniga doimiy faol bo'lgan ota yoki onalardan tashqari maxsus taklif orqali har ikkalasini jalb qilish imkonini beradi.

-Oyning eng oxirgi shanba yoki yakshanba kunini ota-onalar va guruh tarbiyachisi imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda "Oila kuni" deb e'lon qilish. Bu kunda qanday ishlarni amalga oshirish mumkin:

a) mashg'lotlar yuzasidan oilaviy musobaqa tashkil etish (gul yasash, plastilindan jo'ja yasash, turli mavzularda rasm chizish)

b) san'at kunilari e'lon qilinib ertakalarni oilaviy jonlantirish (ertaklar tanlovi)

s) mavsumiy o'yinlar (qishda qor bo'ron, bahorda milliy o'yinlar)

d) sport musobaqalari

g) shanbaliklar

Yuqorida qayt etilgan ishlarni amalga oshirish jarayonida nafaqat tarbiyachining ijodkorligi, jonkuyarligi balki ota-onalarning mas'uliyati ham muhim. Ota-onalarimiz farzandlarining kelajakdagi muvofaqiyatlari uchun guruh tarbiyachisidan mas'uliyatliroq bo'lishni talab etishadi, bazida hatto bajarishi lozim bo'lgan vazifalarini eslatib ham qo'yishadi. Guruh tarbiyachilari bolalarga she'r yod oldirishadi, suhbatlashishadi, birgalikda mantiqiy o'yinlar o'ynashadi. Gohida mehnat, sport, ashula, yoki raqs bilan shug'ullantirishadi. Bu amalga oshiriladigan faoliyatlar bolani rivojlanishida muhim, ammo, yetarli emas, qachonki bu faoliyatlar uyda ham davom etsa takrorlansa natijalar biz kutgandek bo'ladi. Bolalar rivojlanishida har ikki tomon MTT va ota-ona birdek mas'ul, chunki farzand yurt

kelajagi, jamiyat suyanchi, oila ishonchidir.U bir nihol, uni qanchalik parvarish qilsak, o'sib ulg'ayganda mevasi shunchalik totli bo'ladi.Bola kamolatiga,uning yuksak cho'qqilarga erishishiga orzumand bo'lgan, farzandi oldida ota-onalik, jamiyat qarshisida fuqorolik burchalarini chuqur anglagan har bir ota-ona, hayotining bir bo'lagi bo'lgan kasbiga mehri bo'lgan har bir tarbiyachi va pedogogik xodim ushbu vazifaga ma'suliyat bilan yondashishi va uni vijdonan ado etishi lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Fayziyeva Z. "MTM va oila hamkorligi" Maktabgacha ta'lim jurnali 2/2016
2. w.w.w Maktabgach ta'lim.uz
3. w.w.w pedagog.uz (Termiziy va Abu Dovud rivoyatlar).
4. Maxfuza Usmanova, THE CONCEPT OF EDUCATIONAL PROFESSIONAL COMPETENCE AND ITS YIELD FACTORS , Arxiv Nauchных Publikatsiy JSPI: 2020: Arxiv №54 (science.i-edu.uz, jspi.uz)
5. Abdurahmonovna, N. M. (2021). Pedagogical and Psychological Aspects of Professional Sustainability of Future Teachers